TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
19 20

Google scholar

PubMed MEDLINE
NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health
Advancing Health Through Knowledge



- 14.00.00 - Tibbiyot fanlari;
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya;
- 14.00.02 - Morfologiya;
- 14.00.03 - Endokrinologiya;
- 14.00.04 - Otorinolaringologiya;
- 14.00.05 - Ichki kasalliklar;
- 14.00.06 - Kardiologiya;
- 14.00.07 - Gigiena;
- 14.00.08 - Oftal'mologiya;
- 14.00.09 - Pediatriya;
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar;
- 14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya;
- 14.00.12 - Tibbiy reabilitologiya;
- 14.00.13 - Nevrologiya;
- 14.00.14 - Onkologiya;
- 14.00.15 - Patologik anatomiya;
- 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya;
- 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya;
- 14.00.18 - Psixiatriya va narkologiya;
- 14.00.19 - Klinik radiologiya;
- 14.00.20 - Tibbiy genetika;
- 14.00.21 - Stomatologiya;
- 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya;
- 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish;
- 14.00.24 - Sud tibbiyoti;
- 14.00.27 - Xirurgiya;
- 14.00.28 - Neyroxirurgiya;
- 14.00.41 - Xalq tabobati;
- 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi;
- 14.00.34 - Yurak-qon tomir xirurgiyasi


№10-SON

2026-yil, oktabr

tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz

https://t.me/tibbbiyot_2100

Litsenziya raqami: №745444













Tahrir hay’ati a’zolari:



BOSH MUHARRIR:
Shuhrat Baymuradov Abdujalilovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Iminov Komiljon Odiljonovich
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali 29.04.2025-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669801 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: №745444.

Tahrir hay’ati a’zolari:



Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
Texnika fanlari doktori (DSc), professor



Ishanqulov Artiqboy Eshboyevich
Biologiya fanlari doktori (DSc), professor



Otamuradov Furqat Abdukarimovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.



Shuxrat Jumayevich Teshayev
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Oral Aminovna Ataniyazova
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Jalolova Feruza Maxamatjanovna
Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc), dotsent



Uraqov Shokir Ulashovich
tibbiyot fanlari doktori doktori (DSc)

Aripkhodjaeva Shakhzoda
resident doctor in national medical center

"TIBBIYOT TA’LIMI VA INNOVATSIYALARI"
ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2024-yil 9-oktabrdan boshlab c-5669651 raqami ostida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Murojaat uchun telefon:
+998 97 748 70 03
Email: @munis_sm

MUNDARIJA

KARDIORENAL SAMARADORLIK NUQTAI NAZARIDAN FINERENON VA EPLERENONNING CHAP QORINCHA OTISH FRAKSIYASI SAQLANGAN YURAK YETISHMOVCHILIGI BEMORLARIDAGI QIYOSIY BAHOLANISHI 21
Qodirova Guljahon Ramozonovna, Tursunova Laylo Dilshatovna

GIPERSPEKTRAL TASVIRLARNI TASNIFLASHDA FAZOVIY SIZIB CHIQISH NIMANI O‘LCHAYDI? YAQINLIK, KO‘RILMAGAN SINFLAR VA SINFLAR TARKIBIGA AJRATISH 27
Tuxtamurodov Nozir Ulmas o‘g‘li

DIABETIK PANJA SINDROMINING JARROHLIK ASORATLARINI DAVOLASHDA YANGI YONDASHUVLAR 34
Akmaljon Olimov

FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDA GERIATRIK YOSHDAGI BEMORLARDA O‘PKA VA EKSTRAPULMONAL SILNING KLINIK-EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI (2020–2025) 40
Maxsumova Dinora Kamolovna, Zuhriddin Salohiddinovich Salohiddinov

ANTIBIOTIKLARGA CHIDAMLI BAKTERIYALAR: ZAMONAVIY TIBBIYOT MUAMMOSI 46
Abdisamatova Sarviniso Adisamatovna

EFFECTIVENESS OF TREATMENTS FOR CORONARY ARTERY DISEASE 50
Alfiya S. Shamsiddinova, Xursandbek A. Ergashaliyev, O‘g‘iloy M. Umaraliyeva, Ibrokhimjon M. Xursanov

KARDIORENAL SINDROMDA GENETIK VA EPIGENETIK DETERMINANTLAR HAMDA OQSIL BIOMARKERLAR PANELI: INTEGRATSION DIAGNOSTIK YONDASHUV 55
Korakulova Zilola Tilovmurodovna, Tursunkulov Ortikali, Ahmedova Umida Maxmudovna

ANDIJON VILOYATI AYOLLAR POPULYATSIYADA QALQONSIMON BEZ PATOLOGIYALARI FONIDA SUT BEZI SARATON VA SARATON OLDI HOLATLARINI UCHRASH CHASTOTASI 65
Mahmudjonova Sayyoraxon Shavkatbek qizi

SURUNKALI TROMBOEMBOLIK O‘PKA GIPERTENZIYASI: PATOGENEZDAN DAVOLASH STRATEGIYASINI TANLASHGACHA 70
Sunnatova Gulbahor Ismatovna, Tashinova Laylo Xolmurodovna, Ergasheva Nigora Utkurovna, Xolmirzayev Baxtiyor Turgunovich

TISH OLINGANDAN KEYIN PRP QO‘LLASHNING KLINIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH 77
Muqimov Odiljon Axmadjonovich, Urinova Gulnoza Shuxrat qizi

TISH PROTEZLARI, JAG‘ MODELLARI VA JARROHLIK SHABLONLARINI YARATISHDA 3D-BOSMADAN FOYDALANISH 84
Abduganiyeva Shaxista Xodjiyevna, Axmedov Lutfullo

SPORTCHILARDA KORONAR ARTERIYA KASALLIGINI YENGIL SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA ERTA ANIQLASH 89
Muksimova Shahnoza Shamuhitovna, Umirzakova Sabina Totlibayevna, Isxakova Nargiza Patxillayevna

ИЗУЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МИКРОТОКОВОЙ ТЕРАПИИ В КОМПЛЕКСНОМ ЛЕЧЕНИИ ХРОНИЧЕСКОГО ГЕНЕРАЛИЗОВАННОГО ПАРОДОНТИТА У ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА 103
Меджидов Меджид Нисрединович, Кафаров Ризван Тельманович, Тешабоев Мухаммадяхё Гуломкодирович, Рахматуллаев Азизбек Ахмадулло угли

ОТДАЛЁННЫЕ ОСЛОЖНЕНИЯ НЕКРОТИЧЕСКОГО ЭНТЕРОКОЛИТА НОВОРОЖДЁННЫХ ПРИ ПРИКРЫТОЙ ПЕРФОРАЦИИ УЧАСТКА ПОПЕРЕЧНОЙ ОБОДОЧНОЙ КИШКИ 122
Хамраев Абдурашид Журакулович, Акмалова Юлдуз Илхомовна, Каримов Итиёр Музаффарович

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ХИРУРГИИ СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И УСЛОВИЯ КЛИНИЧЕСКОГО ПРИМЕНЕНИЯ 132
Шухратова Мафтуна Мухаммад-Али кизи
РЕЗУЛЬТАТЫ ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ ВРОЖДЕННОГО ВЫВИХА БЕДРА У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ВОЗРАСТА 139
Файзиматов Музаффар Азамович
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РЕКОНСТРУКТИВНЫМ ОПЕРАЦИЯМ ВЕРХНЕЙ И НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ 144
Шухратова Мафтуна Мухаммад-Али кизи
ZRR VA AUTIZMLI BOLALARDA KOGNITIV-FUNKSIONAL REABILITATSIYADA MONTESSORI METODIKASINING O‘RNI 152
Odilbekova Hurliqo, Kimsanboyeva Odina, Jahonboyeva Dilorom, Majidova Yoqutxon Nabievna
ОТ ВАЛИДИРОВАННОЙ ЦИФРОВОЙ ПЛАТФОРМЫ ДЛЯ ОРТОГНАТИЧЕСКОЙ ХИРУРГИИ К БИОМЕХАНИЧЕСКОМУ МОДЕЛИРОВАНИЮ В РЕАЛЬНОМ ВРЕМЕНИ ПЕРСПЕКТИВЫ ГИБРИДНОГО РАСШИРЕНИЯ PINN И FEA ДЛЯ ЗУБОЧЕЛЮСТНОЙ СИСТЕМЫ 158
Шухратова Мафтуна Мухаммад-Али кизи
ДОБРОКАЧЕСТВЕННЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ В АСПЕКТЕ ОНКОЛОГИЧЕСКОЙ НАСТОРОЖЕННОСТИ: СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ЭТИОЛОГИИ, ПАТОГЕНЕЗА И ДИАГНОСТИКИ 164
Набиева Шохсанам Кахрамон кизи
SUBATROFIK RINITDA BURUN SHILLIQ QAVATINING KLINIK-FUNKSIONAL VA MIKROBIOLOGIK HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH ASOSIDA MAHALLIY TERAPIYANI TAKOMILLASHTIRISH 169
Yashnarova Lobar Eldor qizi
BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHI BUZILISHLARINI KORREKSIYALASHDA FORBRAIN QURILMASINING O‘RNI: ADABIYOTLAR SHARHI 173
Kimsanboyeva Odina Kozimovna, Odilbekova Hurliqo Ilhomovna, Jahonboyeva Dilorom Vohidjonovna, Huseynova Nadira Turgunovna
SURUNKALI BUYRAK KASALLIGINING DIALIZ BOSQICHIDAGI BEMORLARDA NOS3 GENI T786C POLIMORFIZMINING YURAK-QON TOMIR ASORATLARI BILAN BOG‘LIQLIGI 178
Eshmetova Sabohat Ilxomovna, Jabbarov Ozimboy Otaxonovich, Tursunova Laylo Dilshatovna
BOLALARDA YUQORI NAFAS YO‘LLARI TORAYISHI BILAN BOG‘LIQ DISTAL OKKLYUZIYANI DAVOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH 185
Tosheva Orzigul Karim qizi
НЕЙРОМЫШЕЧНАЯ ДИСФУНКЦИЯ И БОЛЕВОЙ СИНДРОМ ПРИ ДЕКОМПЕНСИРОВАННОЙ СТИРАЕМОСТИ ЗУБОВ: ОЦЕНКА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВОССТАНОВЛЕНИЯ ЗУБНЫХ РЯДОВ 189
Хаитбоева Мохирабону Уткир кизи, Мухамедсаидова Ирода Абдувахоб кизи, Хусанбаева Феруза Акмаловна
BOSH MIYA QON AYLANISHINING O‘TKIR BUZILISHIDA BRONX - O‘PKA TIZIMI ASORATLARI RIVOJLANISHINING KLINIK–PATOGENETIK XUSUSIYATLARI 197
Ikromova Mufazzal Abdurashidovna
СОВРЕМЕННЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВАХ И МЕХАНИЗМАХ ДЕЙСТВИЯ АДАПТОГЕННЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ 201
Ганиева Динара Шарофидиновна
CHAYNOV TISHLARI OKKLYUZION YUZASINING RAQAMLI 3D-MORFOMETRIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING OKKLYUZION BALANSI HAMDA CHAYNASH FUNKSIYASI BILAN BOG‘LIQLIGI 209
Abdumutalipova Muborak Abdurashid qizi, Rizayeva Sevara Mirgulyamovna

DEVELOPMENT OF A SET OF INNOVATIVE PREVENTIVE MEASURES AIMED AT PREVENTING DISEASES OF HARD DENTAL TISSUES IN CHILDREN, TAKING INTO ACCOUNT THEIR AGE-RELATED CHARACTERISTICS BASED ON CLINICAL AND DIAGNOSTIC CRITERIA 215
Buriyeva N. A.

BOLALARDA GIPERTROFIK GINGIVITNI DAVOLASH SAMARADORLIGINI KLINIK VA PERIODONTAL INDEKSLAR ASOSIDA BAHOLASH 219
Eshimova Sayyora Tursunovna

RAS BO‘LGAN BOLALARDA KOGNITIV BUZILISHLARNI KORREKSIYALASHDA MIKROTOKLI REFLEKSOTERAPIYANING O‘RNI: ADABIYOTLAR SHARHI 226
Jahonboyeva D.V, Odilbekova H.I, Kimsanboyeva O.K

BARIATRIK JARROHLIK AMALIYOTI O‘TKAZGAN BEMORLARDA PSIXOLOGIK REGRESS SHAKLLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 232
Kuchkarov Humoyun Nurali o‘g‘li, Yadgarova Nargiza Fahriddinovna

COMORBIDITY PATTERNS AND THEIR ASSOCIATION WITH GALLSTONE DISEASE IN THE ELDERLY POPULATION: (A POPULATION-BASED STUDY IN THE FERGANA VALLEY, UZBEKISTAN) 239
Usmonov Xusniddin Qutbidinovich, Salakhidinov Sarvarjon Zaynabidinovich

ВЛИЯНИЕ ТРАВМ КОЛЕННОГО СУСТАВА НА ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КАРЬЕРЫ ФУТБОЛИСТОВ: АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РИСКА, ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕАБИЛИТАЦИИ И МЕР ПРОФИЛАКТИКИ ПОВТОРНЫХ ПОВРЕЖДЕНИЙ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ) 250
Анваров Абдуманнон Абдурахмонович, Бурханова Гулноза Лутфиллоевна, Исакулов Элдор Кулдошович, Бобобекова Умида Кувондиковна, Ким Вероника Александровна, Анварова Малика Абдурахмоновна

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕПРОТИВОТУБЕРКУЛЕЗНОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПОД ВЛИЯНИЕМ ФИНАНСИРУЕМЫХ ИЗ ВНЕШНИХ ИСТОЧНИКОВ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ 257
Рустамов Уктам Мардонкулович

КОРРЕЛЯЦИОННЫЙ АНАЛИЗ КЛИНИКО-НЕВРОЛОГИЧЕСКИХ, НЕЙРОВИЗУАЛИЗАЦИОННЫХ, НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ЛАБОРАТОРНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ У ПОДРОСТКОВ С ДЦП В ПОЗДНЕЙ РЕЗИДУАЛЬНОЙ СТАДИИ 262
Эргашева Мафтуна Озодовна

КЛИНИЧЕСКОЕ И ПРОГНОСТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДОЛИХОСИГМЫ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ЗАПОРЕ У ДЕТЕЙ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ) 266
Тошпўлатов Бехзод Бахтиёржон угли, Мирзакаримов Бахромжон Халимжонович, Тошпулатова Нигора Комолиддин кизи

AYOLLARDA O‘Z JONIGA QASD QILISH HOLATLARINING SUD-TIBBIY AHAMIYATI 274
Eliyeva M.F.

КЛИНИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ КРИТЕРИИ ВЫБОРА КОНСТРУКЦИИ, МАТЕРИАЛА И ПРОТОКОЛА ФИКСАЦИИ ВКЛАДОК 280
Азимджанова Феруза Абдурашидовна

УРОВНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ИНФЕКЦИОННО-ВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ ЧЕЛЮСТЕЙ И ОКРУЖАЮЩИХ МЯГКИХ ТКАНЕЙ 286
Азимов Мухаммаджон Исмоилович, Кулматов Тимур Мухидди угли, Азимов Азиз Мухаммаджанович

ПРОФИЛАКТИКА АЛЛЕРГИИ У ДЕТЕЙ ИЗ ГРУПП РИСКА 292
Деворова Марифат Бакиевна

АЛГОРИТМ УСТАНОВКИ ПОРИСТЫХ ИНДИВИДУАЛЬНО ИЗГОТОВЛЕННЫХ ТИТАНОВЫХ ИМПЛАНТАТОВ 296
Каримов Шохрух Илхом угли

К ВОПРОСУ ХИРУРГИЧЕСКОЙ И ОРТОПЕДИ-ЧЕСКОЙ РЕАБИЛИТАЦИЯ БОЛЬНЫХ С СОЧЕ-ТАННЫМИ ТРАВМАМИ ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ОБЛАСТИ 300
Каршиев Ш. Г., Муратбаев А. Б, Базаров Б. Б, Гофуров А.Ш.

АНАЛИЗ НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ТЕСТИРОВАНИЯ С ПОСЛЕДУЮЩЕЙ КОРРЕЛЯЦИЕЙ РЕЗУЛЬТАТОВ КОГНИТИВНЫХ ВЫЗВАННЫХ ПОТЕНЦИАЛОВ ГОЛОВНОГО МОЗГА И КЛИНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ У ПАЦИЕНТОВ С АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПОТЕНЗИЕЙ МОЛОДОГО ВОЗРАСТА 304
М. М. Мамурова, А. Т. Джурабекова

РОЛЬ ВИТАМИНА D В ПРОФИЛАКТИКЕ ПЕРИИМПЛАНТНЫХ ОСЛОЖНЕНИЙ У ПАЦИЕНТОВ С АБДОМИНАЛЬНЫМ ХИРУРГИЧЕСКИМ АНАМНЕЗОМ 309
Мирзаев Абдукодир Рустамович, Пулатов Ашраф Илхомович, Мирзаева Ольга Александровна

ЭХОГРАФИЧЕСКАЯ АНАТОМИЯ ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ОБЛАСТИ У ЗДОРОВЫХ ДЕТЕЙ КАК НОРМАТИВНАЯ ОСНОВА УЛЬТРАЗВУКОВОЙ ДИАГНОСТИКИ ТРАВМ 314
Назарова Нигина Асрол кизи

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ С ТРАВМАТИЧЕСКИМ ПОРАЖЕНИЕМ ЛИЦЕВОГО НЕРВА НА ФОНЕ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ ЛИЦА И ЧЕЛЮСТЕЙ 320
Шомуродов Кахрамон Эркинович, Нормаматов Алишер Рузи угли

ОСОБЕННОСТИ ПОСТКОВИДНОГО СИНДРОМА У ПАЦИЕНТОВ С COVID-19-АССОЦИИРОВАННОЙ ПНЕВМОНИЕЙ ПРИ РАЗЛИЧНЫХ НАРУШЕНИЯХ УГЛЕВОДНОГО ОБМЕНА: РЕЗУЛЬТАТЫ 24-МЕСЯЧНОГО НАБЛЮДЕНИЯ 324
Тилляшайхова Ирода Мирзагалеб кизи

КЛИНИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И СТЕПЕНИ ТЯЖЕСТИ РАССТРОЙСТВ У ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА 330
Тургунбаев Анвар Узакбаевич, Очилов Улугбека Усманович

МУЛЬТИДИСЦИПЛИНАРНЫЙ ПОДХОД К УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ РИНОПЛАСТИКИ У ПАЦИЕНТОВ С ВРОЖДЕННЫМИ РАСЩЕЛИНАМИ ГУБЫ 335
Бекмурадова Чарос Юсуфовна, Кодиров Элбек Мияссарович, Пулатов Ашраф Илхомович, Хасанов Шухрат Махмудович

GEMORRAGIK INSULTDAN VAFOT ETGAN BEMORLAR BUYRAK USTI BEZI PO‘STLOQ QAVATI ZONALARINING MORFOMETRIK TAHLILI 340
Ergashev Obidjon Odilovich, Mo‘ydinov Javlon Ibrohimovich

TAJRIBAVIY GIPERXOLESTERINEMIYADA BOSH MIYADAGI MORFOLOGIK O‘ZGARISHLARNI O‘RGANISH 346
Vohidov Bekzod Rafiq o‘g‘li

ИЗМЕНЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ ГЕМОДИНАМИКИ У ПАЦИЕНТОВ С СИСТЕМНОЙ СКЛЕРОДЕРМИЕЙ И ИНТЕРСТИЦИАЛЬНЫМ ПОРАЖЕНИЕМ ЛЁГКИХ 350
Бабамурадова Заррина Бахтияровна, Касимова Бахора Саидовна, Ашурова Мафтуна Ойбековна

КЛИНИЧЕСКОЕ И ПАТОГЕНЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НЕЙРОГУМОРАЛЬНЫХ НАРУШЕНИЙ У ПАЦИЕНТОВ С СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ И МЕТАБОЛИЧЕСКИ АССОЦИИРОВАННОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПЕЧЕНИ 361
Наргиза Бахтиёровна Хайдарова

МЕТОДИКА КЛИНИЧЕСКОГО И ЦИФРОВОГО ОБСЛЕДОВАНИЯ ПАЦИЕНТОВ С ДЕКОМПЕНСИРОВАННОЙ СТИРАЕМОСТЬЮ ЗУБОВ 367
Хаитбоева Мохирабону Уткир кизи, Хусанбаева Феруза Акмаловна

BACHADON BO‘YNI SARATONINI ERTA TASHXISLASHDA HPV TESTI VA SITOLOGIK TEKSHIRUVNING DIAGNOSTIK SAMARADORLIGI 374
Akbarova Maftuna Adhamjon qizi

YO‘LDOSHDA QON AYLANISHI PATOLOGIYASINING GEMATOLOGIK VA PATOMORFOLOGIK JIHATLARI VA ULARNING PERINATAL ASORATLARNI OLDINI OLISHDAGI AHAMIYATI 379
Ergasheva Dilyoraxon Islomjon qizi

ANDIJON VILOYATI MISOLIDA OIV INFEKSIYASI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA ANTIRETROVIRUS TERAPIYANING UZOQ MUDDATLI NATIJALARI 383
G‘afforov Husanboy Abdulmutallibovich, Fayzullayeva Dilfuza Baxodirovna

ENDOKRIN-METABOLIK PATOLOGIYALARDA KLINIK-BIOKIMYOVIY BIOMARKERLAR ASOSIDA INDIVIDUAL XAVFNI STRATIFIKATSIYA QILISH MODELINI ISHLAB CHIQISH 389
G‘afforova Aziza Kamol qizi

SULFOPARINNING O‘TKIR VA 90 KUNLIK PERORAL TOKSIKOLOGIK KO‘RSATKICHLARINI EKSPERIMENTAL BAHOLASH 393
Go‘zalxon Qutlikova Maxammadjonovna, Minavarov Rasuljon Anvarovich, Muxtorov Boburbek Otabek o‘g‘li, Mamajanov Taxirjon Gapirjonovich, Vahobov Hikmatillo Bahodirjon o‘g‘li

CHANGES IN ANXIETY, EATING BEHAVIOR, AND BODY IMAGE AFTER BARIATRIC SURGERY 403
Kuchkarov Humoyun Nuralievich, Yadgarova Nargiza Fahritdinovna

FERTIL YOSHDAGI AYOLLAR POPULYATSIYASIDA SUT BEZI SARATONI VA SARATON OLDI KASALLIKLARINI ERTA TASHXISLASH, OLDINI OLISH VA DAVOLASHDA ZAMONAVIY KOMPLEKS TEKSHIRUVLAR 409
Rasulova Dilfuzaxon Komiljon qizi

YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA ANTIKOAGULYANT PREPARATLARNING SAMARADORLIGI VA GEMORRAGIK ASORATLAR XAVFI 415
Raximova Dilorom Orifjonovna, Rustamov Ibrahim Xudoyberdiyevich, Nurmatov Shavkat Ubaydullayevich

ТРЕНИРУЕМОСТЬ РЕГУЛЯТОРНОГО КОМПОНЕНТА ЭМПАТИИ: МЕТААНАЛИТИЧЕСКИЕ ДАННЫЕ И ГИПОТЕЗЫ НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПРОВЕРКИ 419
Ягудин Дмитрий Рустамович, Айдарова Диана Сматуллаевна, Фозилбеков Рузикул Анаркулович

ОПОРНЫЕ ТОЧКИ РЕАБИЛИТАЦИИ МЕХАНИЗМОВ ЭМПАТИИ В КЛИНИЧЕСКОЙ ПСИХОЛОГИИ: НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ И ПОЗИТИВНЫЕ ЭФФЕКТЫ 427
Ягудин Дмитрий Рустамович, Айдарова Диана Сматуллаевна

YOSHLAR ORASIDA ARTERIAL GIPERTENZIYA: XAVF OMILLARI, ERTA ANIQLASH VA PROFILAKTIKA 438
Rahimov Javohir Dilshodjon o‘g‘li, Raufova Jasmin Rasuljon qizi, Muzaffarov Jahongir Shavkat o‘g‘li

BOSH MIYA TUG‘RUQ TRAVMALARIDA CHAQALOQLAR BUYRAK USTI BEZIDA HSP70, CASPASE-3 VA MC2R MARKERLARI EKSPRESSIYASINING QIYOSIY IMMUNOGISTOKIMYOVIY TAHLILI 443
Akbarova Odinahon Rasulovna

ALTSGEYMER KASALLIGINI ERTA VA PREKLINIK DIAGNOSTIKA QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI: SUYUQLIK BIOMARKERLARI, NEYROIMAGING VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR 450
Amirova Maftuna Timur qizi, Butunboyeva Mahliyo Qodir qizi, Shevketova Diana Ismailovna, Musurmonova Bahora Kamolovna, Sharipova Dilobar Muhiddin qizi

HUDUDIY IJTIMOIY-GIGIYENIK BAHOLASH ASOSIDA BIRLAMCHI TIBBIY PROFILAKTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 456
Ashurova Manzura Djaloldinovna

BOLALARDA COVID-19 DAN KEYIN RIVOJLANGAN YUVENIL IDIOPATIK ARTRITNING KLINIK-LABORATOR, IMMUNOLOGIK VA ULTRATOVUSH XUSUSIYATLARI 465
Axmedova Dilorom Ilxamovna, Mamatqulova Rohatoy Iskandarovna

YOD TANQISLIGI BILAN BOG‘LIQ KARDIOVASKULAR XAVF OMILLARINI ERTA ANIQLASH 474
Jo‘rayev Muhammadkarim Mirzamumin o‘g‘li, Mahmudov Nurillo Ismoilovich

INDIVIDUAL VA SUMMA FLAVONOIDLARNING QONNING AYRIM BIOKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI 481
Juraeva Dilshoda Imomnazarovna, Rahmonova Shaxnoza Erknovna, Shagulyamova Kamola Lutfulloyevna

OLIGOMENORRHEA AND AMENORRHEA IN POLYCYSTIC OVARY SYNDROME: A RETROSPECTIVE ANALYSIS OF CLINICAL-METABOLIC PHENOTYPES 485
Najmutdinova Dilorom Kamaritdinovna, Mahmadullayeva Shaxnoza Sodiqjon qizi

PEDIATRIK VA GERIATRIYA AMALIYOTIDA INDIVIDUAL DORI SHAKLLARINI YARATISH VA ZAMONAVIY FARMATSEVTIK TEXNOLOGIYALAR 494
Usmonova Malikakhon Komiljon qizi

COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF CLINICAL, LABORATORY, AND INSTRUMENTAL CHARACTERISTICS OF CHRONIC OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE 499
Vazira Akhatova Pardakulovna

ОЦЕНКА ЗНАЧИМОСТИ АЛЛЕЛЬНОГО ПОЛИМОРФИЗМА ГЕНА IL6 (RS1800795) ПРИ ИММУННОМ МИКРОТРОМБОВАСКУЛИТЕ 505
Маткаримова Дилфуза Сабуровна, Юнусова Сабина Шухрат кизи, Атарбаева Амина Акмалевна, Ким Анна Борисовна, Юлдашева Нозима Бахромовна

СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ 3D ПЕЧАТНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ВРЕМЕННЫХ РЕСТАВРАЦИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТОЯНИЕ ПОЛОСТИ РТА 512
Мусабекова Азиза Азамат кизи, Ризаева Севара Миргуламовна

НЕСПЕЦИФИЧЕСКАЯ ИНТЕРСТИЦИАЛЬНАЯ ПНЕВМОНИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОФИЛАКТИКЕ И РЕАБИЛИТАЦИИ 519
Парвина Одиловна Закирьяева

BOSH MIYA TUG‘RUQ TRAVMALARIDAN NOBUD BO‘LGAN CHAQALOQLARDA BUYRAK USTI BEZI MORFOMETRIK KO‘RSATKICHLARINING POSTNATAL YASHASH DAVOMIYLIGIGA BOG‘LIQ QIYOSIY TAHLILI 524
Akbarova Odinahon Rasulovna, Muxsinova Maxzuna Xolmuradovna

ГИПЕРТРОФИЧЕСКАЯ КАРДИОМИОПАТИЯ: КЛИНИКО-ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СТРАТИФИКАЦИИ РИСКА 530
Суюнов Фахриддин Зикириддинович

YUQUMLI KASALLIKLAR TARQALISHIDA SUV TA’MINOTI MANBALARI SUVI SIFATINING SANITARIYA-GIGIYENIK AHAMIYATI 536
Azizova Feruza Lyutpillayevna, Abduvaliyeva Feruza Tulqindjanovna

PASTKI JAG‘ ATROFIYASINING ETIOLOGIYASI, PATOGENEZI VA DAVOLASH 544
Eshmamatov Islombek Axmatovich

КОМПЛЕКСНОЕ КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНОЕ И МИКРОБИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОСТРОГО ГНОЙНОГО ОСТИТА ЧЕЛЮСТЕЙ У ДЕТЕЙ: ДИЗАЙН, МЕТОДЫ И ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ 548
Хасанова Мовлуда Ахрамовна, Эшмаматов Исломбек Ахматович

BUYRAK HUJAYRALI SARATONINI ERTA ANIQLASHDA ULTRATOVUSH TEKSHIRUVINING DIAGNOSTIK IMKONIYATLARI 556
Saydamatov Hayitboy Ulug‘bek o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA TIBBIY MIKROBIOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHIGA HISSA QO‘SHGAN OLIMLAR VA ILMIY-PEDAGOGIK MAKTABLAR 560
Xujaeva Shaxnoz Absamatovna

MARKAZIY OSIYODA ANEMIYA: KASALLIKMI YOKI IRSIY OMIL NATIJASI? 566
Hasanboyev Hojiakbar Ilhom o‘g‘li, Xajimatov Ravshanbek Sabirjanovich

EVALUATING THE THERAPEUTIC EFFICACY OF NON-TRADITIONAL TREATMENT METHODS IN REHABILITATION OF CERVICAL OSTEOCHONDROSIS AND MYOFASCIAL PAIN SYNDROME 577
Husanova Aziza Bobonazarovna, Urazbayeva Guljamal Khamzayevna, Aslamkulov Alisher Maksudovich, Abdullayeva Yulduz Jamshid kizi, Egamova Malika Tursunovna

AYOLLARDA YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARI: KLINIK XUSUSIYATLARI VA DIAGNOSTIK MUAMMOLAR 585
Rahimov Javohir Dilshodjon o‘g‘li, Raufova Jasmin Rasuljon qizi, Muzaff arov Jahongir Shavkat o‘g‘li

КОМПЛЕКСНАЯ МЕДИЦИНСКАЯ РЕАБИЛИТАЦИЯ ПАЦИЕНТОВ С ПОСТИНСУЛЬТНЫМИ ДВИГАТЕЛЬНЫМИ НАРУШЕНИЯМИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕДИКАМЕНТОЗНЫХ И НЕМЕДИКАМЕНТОЗНЫХ ПОДХОДОВ 590
Сайдалиева Севара Шавкатовна, Абдурахмонов Илхомжон Амриллоевич, Ким Ольга Анатольевна, Анварова Малика Абдурахмоновна

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ИСХОДОВ ОПЕРАТИВНЫХ ВМЕШАТЕЛЬСТВ НА ТВЁРДОМ НЁБЕ У ДЕТЕЙ С ДВУСТОРОННЕЙ РАСЩЕЛИНОЙ ВЕРХНЕЙ ГУБЫ И НЁБА 598
Барно Журахоновна Пулатова, Ерназар Салиевич Бимбетов

O‘TKIR IKKILAMCHI PERITONITDA REGIONAR LIMFA TUGUNLARINING IMMUNOGISTOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI 604
Xaydarov Azizjon Qosimovich, Eshbayev Erkin Abduxalimovich

LAPAROSKOPIK XOLEDOXOLITOTOMIYANI YAKUNLASH VA O‘T YO‘LI TOZALANISHINI INTRAOPERATSION NAZORAT QILISH: BIRLAMCHI CHOK, TASHQI DRENAJ VA URETEROSKOP BILAN XOLEDOXOSKOPIYA 611
To‘rayev Ulug‘bek Rustamovich, O‘rokov Shuxrat To‘xtayevich

ИЗУЧЕНИЕ ДИНАМИКИ БИОХИМИЧЕСКИХ И ГОРМОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КРОВИ У СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ОСТРОГО ПРЕДЭКЗАМЕНАЦИОННОГО СТРЕССА 615
Махкамова Лайло Нозимжон кизи, Рустамова Шохиста Омонжоновна

O‘PKA SARATONINING KLINIK-MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA CD34, p53 VA PD-L1 IMMUNOGISTOKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARINING TAVSIFIY TAHLILI 620
Rahmatov Behzodjon Boypo‘latovich, G‘afur-Axunov Mirza-Ali Aliyorovich

ОСТЕОМИЕЛИТ ВЕРХНЕЙ ЧЕЛЮСТИ ПРИ МУКОРМИКОЗЕ: ПОДХОДЫ К ДИАГНОСТИКЕ И КОМПЛЕКСНОМУ ЛЕЧЕНИЮ 627
Махкамов Зохидхужа Хасанхон угли, Рузиматов Акмалбек Санжарбек угли, Аллаяров Абдулло Улугбек угли

QISMAN VA TO‘LIQ ADENTIYADA ORTOPEDIK KONSTRUKSIYANI TANLASH: KLINIK-DIAGNOSTIK MEZONLAR VA RAQAMLI REJALASHTIRISH 633
Normurodova Ruxsora Zokir qizi

RETSIDIVLANGAN QORIN OLD DEVORI CHURRALARIDA MUSHAK TO‘QIMASI ATROFIYASI VA DISTROFIYASINING YOSHGA BOG‘LIQ PATOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI 637
Asatullaev G‘ulomjon Shukurullaevich, Muydinov Javlon Ibroximovich

SUN’IY INTELLEKT VA NEVROLOGIYA: NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNI ERTA TASHXISLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI (ADABIYOTLAR SHARHI) 643
Doniyorova Mahliyo Abror qizi, Toshboeva Sevinch Abror qizi, Tashxo‘djayeva Xadija Baxtiyor qizi, Olmosov Ravshan

КРАНИОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЛИЦЕВОГО СКЕЛЕТА У БОЛЬНЫХ С ОДНОСТОРОННЕЙ СКВОЗНОЙ РАСЩЕЛИНОЙ ГУБЫ И НЁБА ПОСЛЕ ХЕЙЛО- И УРАНОПЛАСТИКИ В РАННЕМ И ПОЗДНЕМ СМЕННОМ ПРИКУСЕ 649
Муртазаев Саидиало Муртазаевич, Юлдашев Темурхон Акрамович, Муртазаев Саидазим Саидазамович

QUROLLI KUCHLAR PENSIONERLARIDA KASALLANISH TARKIBI VA SOG‘LIQ UCHUN XAVF OMILLARINI BAHOLASH ASOSIDA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARNI TAKOMILLASHTIRISH 654
Jo‘rayev Jo‘rabek G‘ofurjonovich

YIRINGLI YARA SHAROITIDA YUMSHOQ TO‘QIMALARNING TIKLANISHI: MORFOLOGIK VA GISTOLOGIK XUSUSIYATLAR VA YOSHGA BOG‘LIQ FARQLAR 661
Xaydarov Raximboy Rajabboy o‘g‘li, Abdulxakimov Arsen Renatovich

ARTERIAL GIPERTENZIYA VA 2-TUR QANDLI DIABET BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA QON BOSIMINING SUTKALIK PROFILI, CHAP QORINCHA REMODELLANISHI VA NT-PROBNP KO‘RSATKICHLARINING O‘ZIGA XOSLIGI 667
Saidakbarova Feruza Tulkunovna, Jabbarov O‘zimboy Otaxonovich, Srojiddinova Nigora Zaynutdinovna

THE COL1A1 1997C/A (rs1107946) GENE POLYMORPHISM IN OSTEOPOROSIS ASSOCIATED WITH CARDIORENAL SYNDROME 675
Nadirova Yulduz Isom kizi, Tursunova Laylo Dilshadovna

СОВРЕМЕННЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ОБ ИММУННЫХ МЕХАНИЗМАХ ПОРАЖЕНИЯ ПОЧЕК ПРИ СИСТЕМНОЙ КРАСНОЙ ВОЛЧАНКЕ 683
Мухитдинова Гулшан Зохировна, Гайратова Хулкар Орифжоновна

PROPIL 4-((1-(4-BROMOFENIL)-1H-1,2,3-TRIAZOL-4-IL) METOKSI) BENZOAT MODDASINING O‘TKIR OG‘RIQ SINDROMIDAGI ANALGETIK FAOLLIGI 692
Aytmuratova Urxiya Kallibekovna

TO‘LIQ ADENTIYADA RAQAMLI SKANERLASH VA AN’ANAVIY FUNKSIONAL QOLIP OLISH 696
Normurodova Ruxsora Zokir qizi

ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫЙ ВЫБОР МЕТОДА И СРОКОВ РЕВАСКУЛЯРИЗАЦИИ ПРИ ГЕМОДИНАМИЧЕСКИ ЗНАЧИМЫХ СТЕНОЗАХ СОННЫХ АРТЕРИЙ В УСЛОВИЯХ ЦЕНТРА ЭКСТРЕННОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ 700
Маматалиев Фарход Абдиганиевич, Абдурахманов Абдусалом Абдулагзамович

BOLALARDA POLIPOZ RINOSINUSITNI JARROHLIK DAVOLASHNING UZOQ MUDDATLI NATIJALARINI QIYOSIY BAHOLASH 712
Yoqubboyev Baxriddin Rahmatulla o‘g‘li, Rajabov Askar Xamroqulovich

BOLALARDA POLIPOZ RINOSINUSITNI JARROHLIK DAVOLASHNING UZOQ MUDDATLI NATIJALARINI QIYOSIY BAHOLASH

Yoqubboyev Baxriddin Rahmatulla o‘g‘li
Namangan viloyati ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyot markazi
ORCID ID: 0009-0000-2945-6704
E-mail: bek.976@mail.ru

Rajabov Askar Xamroqulovich
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
ORCID ID: 0009-0000-2251-0675
E-mail: doctorrajabov1976@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bolalarda polipoz rinosinusitni jarrohlik davolashning 12 oylik klinik-funksional natijalari qiyosiy baholangan. Tadqiqotga 125 nafar bemor jalb etilib, ular asosiy (n=65) va qiyosiy (n=60) guruhlarga ajratilgan. Davolash samaradorligi SNOT-22 so‘rovnomasi, VAS shkalasi, endoskopik va nurli tekshiruvlar asosida baholangan. Taqdim etilgan 12 oylik natijalarga ko‘ra, asosiy guruhda klinik simptomlarning kamayishi, burun orqali nafas olish va hid bilish funksiyalarining yaxshilanishi hamda hayot sifati ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi qiyosiy guruhga nisbatan yaqqolroq namoyon bo‘lgan. SNOT-22 umumiy ko‘rsatkichi asosiy guruhda 70,4±10,8 balldan 19,3±6,9 ballgacha, qiyosiy guruhda esa 67,9±11,2 balldan 30,3±8,3 ballgacha kamaygani ko‘rsatilgan. Ushbu natijalar taklif etilgan funksional endoskopik sinus jarrohligi usulining an’anaviy usulga nisbatan yuqoriroq klinik-funksional samaradorlik ko‘rsatganligini bildiradi.

Kalit so‘zlar: polipoz rinosinusit, bolalar, funksional endoskopik sinus jarrohligi, jarrohlik davolash, SNOT-22, VAS shkalasi, klinik samaradorlik, retsidiv, hayot sifati.

Abstract: This article presents a comparative evaluation of the 12-month clinical and functional outcomes of surgical treatment of polypoid rhinosinusitis in children. The study included 125 patients divided into a main group (n=65) and a comparison group (n=60). Treatment effectiveness was assessed using the SNOT-22 questionnaire, the Visual Analog Scale (VAS), endoscopic examinations, and radiological imaging. According to the presented 12-month follow-up results, the main group demonstrated a more pronounced reduction in clinical symptoms, greater improvement in nasal breathing and olfactory function, and more favorable changes in quality-of-life indicators compared with the comparison group. The total SNOT-22 score decreased from 70.4±10.8 to 19.3±6.9 points in the main group, whereas in the comparison group, it decreased from 67.9±11.2 to 30.3±8.3 points. These findings suggest that the proposed functional endoscopic sinus surgery technique provides greater clinical and functional effectiveness than the conventional surgical approach.

Key words: polypoid rhinosinusitis, children, functional endoscopic sinus surgery, surgical treatment, SNOT-22, Visual Analog Scale (VAS), clinical efficacy, recurrence, quality of life.

Аннотация: В статье представлена сравнительная оценка 12-месячных клинико-функциональных результатов хирургического лечения полипозного риносинусита у детей. В исследование включены 125 пациентов, распределённых на основную группу (n=65) и группу сравнения (n=60). Эффективность лечения оценивали с использованием опросника SNOT-22, визуально-аналоговой шкалы (VAS), эндоскопических и лучевых методов исследования. Согласно представленным результатам 12-месячного наблюдения, в основной группе отмечены более выраженное уменьшение клинической симптоматики, улучшение носового дыхания и обонятельной функции, а также положительная динамика показателей качества жизни по сравнению с группой сравнения. Суммарный показатель SNOT-22 в основной группе снизился с 70,4±10,8 до 19,3±6,9 балла, тогда как в группе сравнения — с 67,9±11,2 до 30,3±8,3 балла. Полученные результаты свидетельствуют о более высокой клинико-функциональной эффективности предложенной методики функциональной эндоскопической хирургии околоносовых пазух по сравнению с традиционным методом лечения.

Ключевые слова: полипозный риносинусит, дети, функциональная эндоскопическая хирургия околоносовых пазух, хирургическое лечение, SNOT-22, шкала VAS, клиническая эффективность, рецидив, качество жизни.

KIRISH

Bolalarda polipoz rinosinusit otorinolaringologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, burun bo‘shlig‘i va burun yondosh bo‘shliqlari shilliq qavatining surunkali yallig‘lanishi, polipoz to‘qimalarning shakllanishi hamda burun orqali nafas olishning buzilishi bilan tavsiflanadi [1, 12]. Kasallikning uzoq davom etishi hid bilish funksiyasining pasayishi, uyqu buzilishlari va bolalar hayot sifatining yomonlashishiga olib keladi [3]. Shu sababli polipoz rinosinusitni samarali davolash, operatsiyadan keyingi funksional natijalarni yaxshilash va kasallik retsidivlarining oldini olish muhim klinik ahamiyatga ega [5, 14].

Zamonaviy funksional endoskopik sinus jarrohligi polipoz to‘qimalarni bartaraf etish, burun yondosh bo‘shliqlarining tabiiy drenaj yo‘llarini tiklash va ularning ventilyatsiyasini yaxshilash imkonini beradi. Biroq jarrohlik davolash samaradorligi nafaqat dastlabki klinik natijalar bilan, balki uzoq muddatli kuzatuv davomida simptomlarning kamayishi, shilliq qavatning tiklanishi, hayot sifatining yaxshilanishi va retsidivlar chastotasi bilan ham belgilanadi [7, 15]. Shu jihatdan SNOT-22 so‘rovnomasi, VAS shkalasi, endoskopik va nurli tekshiruv natijalarini kompleks baholash jarrohlik usullarining klinik-funksional samaradorligini obyektiv taqqoslashda muhim ahamiyat kasb etadi [1, 8]. Tadqiqot maqsadi: bolalarda polipoz rinosinusitni davolashda taklif etilgan va an’anaviy funksional endoskopik sinus jarrohligi usullarining uzoq muddatli klinik-funksional natijalarini qiyosiy baholash hamda davolash samaradorligini aniqlash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalarda polipoz rinosinusitning klinik kechishi, patogenezi, tashxislash va davolash samaradorligini baholash masalalari zamonaviy otorinolaringologiyaning dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Mavjud tadqiqotlarda kasallikning immunologik, morfologik va funksional xususiyatlari, shuningdek, jarrohlik va konservativ davolash usullarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Sh.E. Amonov va hammualliflar [1, 4] multispiral kompyuter tomografiyasining jarrohlik natijalarini baholashdagi ahamiyati hamda endoskopik rinosinusoxirurgiyaning asosiy usullarini o‘rgangan. K.A. Ismatova, Sh.E. Amonov va A.B. Shaxobov [2] polipoz rinosinusit bilan og‘rigan bemorlarni operatsiyadan keyingi davrda olib borishda antigistamin va antileykotrien preparatlarini birgalikda qo‘llash masalalarini adabiyotlar sharhi asosida ko‘rib chiqqan.

D.D. Sultonova va Sh.E. Amonov [5] bolalarda surunkali rinosinusitning immunopatogenetik mexanizmlarini tadqiq etgan. D.D. Alimova va hammualliflar [13, 14] polipoz rinosinusitda shilliq qavatning morfologik xususiyatlari hamda bolalarda surunkali rinosinusit patogenezida immunologik ko‘rsatkichlarning ahamiyatiga e’tibor qaratgan. U.N. Voxidov [15] surunkali polipoz rinosinusitning klinik-immunologik xususiyatlari va davolash masalalarini o‘rgangan.

A.X. Rajabov va hammualliflar [7, 8] bolalarda surunkali rinosinusitning klinik xususiyatlari, zamonaviy tashxislash va davolash yondashuvlarini yoritgan. T.S. Fayzullayev va hammualliflar [3], shuningdek, A.X. Rajabov va hammualliflar [9, 12] surunkali virusli gepatit B bilan kasallangan bolalarda rinosinusitning klinik kechishi, asoratlari va jigar funksional holati bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etgan. S.N. Usenov va A.X. Rajabov [10] surunkali virusli gepatit B fonida kechuvchi rinosinusitni davolashda atsetilsisteinning samaradorligini, A.X. Rajabov boshqa tadqiqotida esa [11] ushbu bemorlarda sekretolitik terapiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan. A.X. Rajabov va B.R. Yoqubboev [6] bolalarda surunkali polipoz rinosinusitni davolashda sun’iy intellektdan foydalanishga asoslangan funksional endoskopik sinus jarrohligi yondashuvini bayon etgan.

Adabiyotlar tahlili polipoz rinosinusitning patogenetik mexanizmlari, klinik kechishi, tashxislash va davolash usullarining turli jihatlari o‘rganilganligini ko‘rsatadi. Biroq bolalarda taklif etilgan va an’anaviy funksional endoskopik jarrohlik usullarining uzoq muddatli klinik-funksional natijalarini kompleks qiyosiy baholash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shu jihatdan 12 oylik kuzatuv davomida SNOT-22 so‘rovnomasi, VAS shkalasi, endoskopik va nurli tekshiruvlar asosida klinik simptomlar dinamikasi, burun orqali nafas olish va hid bilish funksiyalarining tiklanishi, hayot sifati hamda retsidivlar chastotasini baholash jarrohlik davolash samaradorligini aniqlashning muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotga polipoz rinosinusit tashxisi qo‘yilgan 125 nafar bola jalb etilib, ular qo‘llanilgan jarrohlik usuliga ko‘ra ikki guruhga ajratildi. Asosiy guruhni taklif etilgan funksional endoskopik sinus jarrohligi o‘tkazilgan 65 nafar, qiyosiy guruhni esa an’anaviy funksional endoskopik sinus jarrohligi qo‘llanilgan 60 nafar bemor tashkil etdi. Jarrohlik davolashning klinik-funksional samaradorligini baholash uchun operatsiyadan oldingi va keyingi kuzatuv natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida burun orqali nafas olish, hid bilish funksiyasi, patologik ajralmalar, shilliq qavatning reparativ holati, tabiiy ostiumlarning o‘tkazuvchanligi, sinexiyalar va polipoz retsidivlarining mavjudligi o‘rganildi. Klinik simptomlarning og‘irlik darajasi vizual analog shkala (VAS), bemorlarning hayot sifati esa SNOT-22

so‘rovnomasi yordamida baholandi. Obyektiv o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida endoskopik tekshiruv, 3D-rentgenografiya (konus-nurli kompyuter tomografiyasi) va zarur hollarda multispiral kompyuter tomografiyasi (MSKT) qo‘llanildi. Olingan natijalar guruhlararo qiyosiy tahlil qilinib, davolash samaradorligi, funksional tiklanish darajasi va operatsiyadan keyingi patologik o‘zgarishlar chastotasi baholandi. Statistik ahamiyatlilik mezoni sifatida $p < 0,05$ qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Polipoz rinosinusitli bolalarda jarrohlik davolashning 12 oylik klinik-funksional natijalari asosiy (n=65) va qiyosiy (n=60) guruhlarda qiyosiy baholandi. Taqdim etilgan natijalarga ko‘ra, har ikki guruhda klinik simptomlar og‘irligining kamayishi va hayot sifati ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi kuzatildi. Biroq taklif etilgan funksional endoskopik sinus jarrohligi qo‘llanilgan asosiy guruhda burun orqali nafas olish va hid bilish funksiyalarining tiklanishi hamda klinik simptomlarning kamayishi qiyosiy guruhga nisbatan yaqqolroq namoyon bo‘ldi.

SNOT-22 so‘rovnomasi bo‘yicha klinik simptomlar va hayot sifati ko‘rsatkichlari 22 ta savol asosida, har biri 0–5 ballik shkala yordamida baholandi. 1-rasmda jarrohlikdan oldin SNOT-22 umumiy ko‘rsatkichi asosiy guruhda 70,4±10,8 ballni, qiyosiy guruhda esa 67,9±11,2 ballni tashkil etgan. Operatsiyadan keyingi 12 oylik kuzatuvda ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 19,3±6,9 va 30,3±8,3 ballgacha kamaygani ko‘rsatilgan. Natijada SNOT-22 umumiy ballining pasayishi asosiy guruhda 51,1 ballni, qiyosiy guruhda esa 37,6 ballni tashkil etgan. Asosiy guruhda burun bitishi 4,28±0,74 balldan 1,12±0,89 ballgacha, burundan patologik ajralmalar kelishi 3,92±0,82 balldan 1,02±0,87 ballgacha, hid bilishning pasayishi esa 4,12±0,83 balldan 1,25±0,96 ballgacha kamaygani qayd etilgan. Qiyosiy guruhda mazkur simptomlarning operatsiyadan keyingi ko‘rsatkichlari mos ravishda 1,80±1,01; 1,62±1,09 va 2,00±1,12 ballni tashkil etgan. 1-rasmda 12 oylik kuzatuv yakunida SNOT-22 umumiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruhlararo farq statistik jihatdan ahamiyatli deb ko‘rsatilgan ($p < 0,001$). Taqdim etilgan natijalar asosiy guruhda klinik simptomlarning kamayishi va hayot sifati ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi qiyosiy guruhga nisbatan yuqoriroq bo‘lganligini ko‘rsatadi (1-rasm).

№	SNOT-22 savollari (simptomlar)	Asosiy guruh (n = 65)													Qiyosiy guruh (n = 60)													p (guruhlararo, 12 oy)
		Operatsiyadan oldin							Operatsiyadan keyin (12 oy)							Operatsiyadan oldin							Operatsiyadan keyin (12 oy)							
		0 n	1 n	2 n	3 n	4 n	5 n	M ± SD	0 n	1 n	2 n	3 n	4 n	5 n	M ± SD	0 n	1 n	2 n	3 n	4 n	5 n	M ± SD	0 n	1 n	2 n	3 n	4 n	5 n	M ± SD	
1	Burun bitishi	0	2	6	17	24	16	4,28 ± 0,74	28	14	10	6	5	2	1,12 ± 0,89	1	3	7	17	20	12	4,08 ± 0,81	18	13	12	9	6	2	1,80 ± 1,01	<0,001
2	Burundan oqindi (ajralmalar)	1	3	7	16	22	16	3,92 ± 0,82	30	14	10	6	4	1	1,02 ± 0,87	1	4	9	16	18	12	3,82 ± 0,91	20	14	11	8	5	2	1,62 ± 1,09	0,003
3	Yuzda og‘riq yoki bosim hissi	1	5	8	15	21	15	3,74 ± 0,94	28	17	11	6	3	0	0,91 ± 0,80	2	5	9	16	17	11	3,67 ± 1,00	21	14	12	8	4	1	1,47 ± 1,00	0,002
4	Hid bilishning pasayishi	0	3	6	14	23	19	4,12 ± 0,83	24	18	12	7	3	1	1,25 ± 0,96	1	4	8	13	19	15	4,00 ± 0,90	17	12	11	10	7	3	2,00 ± 1,12	<0,001
5	Uyqu sifati yomonlashuvi	1	4	8	17	20	15	3,63 ± 0,92	29	18	10	5	3	0	0,83 ± 0,81	2	5	8	16	17	12	3,53 ± 1,02	22	15	10	8	4	1	1,42 ± 1,00	0,001
6	Uyg‘oqlikdagi charchoq	2	6	10	15	19	13	3,08 ± 1,00	32	16	10	4	2	1	0,68 ± 0,84	3	6	11	15	15	10	3,00 ± 1,08	26	14	10	6	3	1	1,22 ± 0,94	0,002
7	Diqqatning pasayishi	3	7	11	16	18	10	2,77 ± 1,06	34	17	9	4	1	0	0,62 ± 0,72	4	7	12	14	14	9	2,70 ± 1,06	28	13	9	6	3	1	1,10 ± 0,94	0,003
8	Asabiylik va bezovtalik	3	6	10	17	17	12	2,89 ± 1,07	33	16	10	4	2	0	0,71 ± 0,79	3	7	12	15	14	9	2,80 ± 1,07	26	14	11	6	2	1	1,28 ± 1,00	0,001
9	Umumiy bezovtalik (noqulaylik)	2	5	9	16	19	14	3,45 ± 0,97	28	16	12	6	3	0	0,94 ± 0,84	2	6	10	16	16	10	3,33 ± 1,00	22	15	11	8	3	1	1,38 ± 0,99	0,001
10	Tana og‘rig‘i	4	8	13	17	15	8	2,38 ± 1,14	36	15	8	4	2	0	0,58 ± 0,74	4	9	13	16	12	6	2,40 ± 1,20	30	13	9	5	2	1	1,02 ± 0,89	0,008
11	Yuz va ko‘z atrofida bosim	2	6	11	16	18	12	3,18 ± 1,00	31	16	10	5	3	0	0,83 ± 0,81	3	7	11	16	14	9	3,10 ± 1,09	25	14	10	7	3	1	1,30 ± 0,98	0,002
12	Qalin, quyuq ajralmalar	2	5	8	15	20	15	3,72 ± 0,98	29	17	10	5	3	1	1,00 ± 0,90	2	6	9	15	17	11	3,60 ± 1,02	21	15	11	8	4	1	1,68 ± 1,07	0,001
13	Tomoqqa oqish hissi	3	6	10	16	18	12	3,11 ± 1,01	31	16	11	5	2	0	0,88 ± 0,80	4	7	11	15	16	8	3,00 ± 1,09	24	15	11	7	3	0	1,47 ± 0,99	0,001
14	Tez-tez shamollash	3	7	11	15	17	12	2,97 ± 1,08	30	16	11	5	3	0	0,89 ± 0,85	4	7	11	15	14	9	2,90 ± 1,09	26	14	10	6	3	1	1,42 ± 1,01	0,003
15	Burunning qurishi	5	9	12	15	14	10	2,28 ± 1,10	37	14	9	3	2	0	0,62 ± 0,74	5	10	12	14	12	7	2,20 ± 1,14	32	13	8	5	2	0	0,98 ± 0,91	0,004
16	Hidlarni yomon his qilish	1	4	7	14	20	19	3,89 ± 0,91	26	16	11	7	4	1	1,22 ± 0,93	1	5	8	14	19	13	3,90 ± 0,97	20	13	11	9	5	2	1,88 ± 1,12	<0,001
17	Burundan qon ketish (quruqlik bilan bog‘liq)	8	14	16	14	9	4	1,64 ± 1,00	51	8	4	2	0	0	0,42 ± 0,62	8	15	16	13	6	2	1,50 ± 1,01	44	9	4	2	1	0	0,72 ± 0,81	0,010
18	Shilliq qavatda qichishish	5	9	12	16	14	9	2,74 ± 1,06	36	13	9	4	2	1	0,72 ± 0,80	5	10	12	15	12	6	2,60 ± 1,07	29	13	9	6	2	1	1,10 ± 0,94	0,003
19	Hidlarni butunlay yo‘qotish hissi	1	4	7	15	20	18	3,92 ± 0,91	27	16	12	6	3	1	1,17 ± 0,90	1	5	8	14	19	13	3,83 ± 0,99	21	13	12	8	4	2	1,88 ± 1,08	<0,001
20	Hamma yerda o‘zini yomon his qilish	4	7	11	16	18	9	2,77 ± 1,08	34	16	9	4	2	0	0,74 ± 0,77	4	8	12	15	14	7	2,70 ± 1,08	28	14	9	6	2	1	1,18 ± 0,96	0,002
21	Ayrim faoliyatlarda cheklanish	4	7	11	15	17	11	2,94 ± 1,06	32	15	10	5	2	1	0,82 ± 0,85	4	8	12	15	14	7	2,90 ± 1,09	26	14	10	6	3	1	1,40 ± 0,99	0,002
22	Uyquda horlash	2	5	8	16	20	14	3,54 ± 1,01	28	17	11	6	3	0	0,98 ± 0,86	2	6	10	15	17	10	3,50 ± 1,02	23	15	11	7	3	1	1,58 ± 1,07	0,001
	SNOT-22 umumiy ball (0–110)	-	-	-	-	-		70,4 ± 10,8	-	-	-	-	-		19,3 ± 6,9	-	-	-	-	-		67,9 ± 11,2	-	-	-	-	-		30,3 ± 8,3	<0,001


SNOT-22 ballik shkala (har bir savol uchun, 0–5 ball):	0 ball (umuman yo‘q)	1 ball (juda kam)	2 ball (yengil)	3 ball (o‘rtacha)	4 ball (kuchli)	5 ball (juda kuchli)

1-rasm. Asosiy va qiyosiy guruhlarda SNOT-22 so‘rovnomasi bo‘yicha klinik simptomlar va hayot sifati ko‘rsatkichlarining jarrohlikdan oldingi hamda 12 oydan keyingi qiyosiy dinamikasi (n = 125).

1-rasm. Polipoz rinosinusitli bolalarda jarrohlikdan oldingi va keyingi klinik simptomlarning qiyosiy baholanishi.

VAS shkalasi bo‘yicha klinik simptomlar dinamikasining qiyosiy tahlili jarrohlikdan keyingi 1, 7 va 12 oylik kuzatuv davrlarida har ikki guruhda ijobiy o‘zgarishlar qayd etilganligini ko‘rsatdi. Taqdim etilgan natijalarga ko‘ra, klinik simptomlarning kamayishi taklif etilgan funksional endoskopik sinus jarrohligi qo‘llanilgan asosiy guruhda qiyosiy guruhga nisbatan yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Jarrohlikdan oldin asosiy guruhda burun bitishi 8,9 ball, burundan ajralmalar kelishi 8,4 ball, burun shilliq qavatida quruqlik hissi 8,6 ball, hid bilishning pasayishi 7,8 ball va yuz sohasida og‘riq yoki bosim hissi 7,9 ballni tashkil etdi. Qiyosiy guruhda ushbu ko‘rsatkichlar mos

ravishda 8,3; 7,7; 8,1; 6,7 va 6,9 ballga teng bo‘ldi. Jarrohlikdan keyingi 7 oylik kuzatuvda asosiy guruhda mazkur simptomlar mos ravishda 1,1; 1,1; 0,9; 1,0 va 0,9 ballgacha kamaygan bo‘lsa, qiyosiy guruhda 2,5; 1,9; 2,0; 2,8 va 2,3 ball darajasida saqlanib qoldi. Rasmda keltirilgan 12 oylik kuzatuv ko‘rsatkichlari ham asosiy guruhda klinik simptomlarning past darajada saqlanganligini, qiyosiy guruhda esa ayrim simptomlarning nisbatan yuqoriroq ifodalanganligini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar taklif etilgan jarrohlik usulining klinik simptomlarni kamaytirishdagi samaradorligi yuqoriroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi (2-rasm).




2-rasm. Asosiy va qiyosiy guruhlarda VAS shkalasi bo‘yicha klinik simptomlarning jarrohlikdan keyingi dinamikasi

Izoh: *VAS – vizual analog shkala (0–10 ball, 0 – simptom yo‘q, 10 – eng kuchli ifodalanish).*

2-rasm. Asosiy va qiyosiy guruhlarda VAS shkalasi bo‘yicha klinik simptomlarning jarrohlikdan oldingi hamda 1, 7 va 12 oylik kuzatuv davrlaridagi qiyosiy dinamikasi.

Endoskopik va nurli tekshiruvlar natijalariga ko‘ra, jarrohlikdan keyingi 7 oylik kuzatuvda asosiy guruhdagi 7 nafar (10,8%) bemorda yuqori jag‘ bo‘shlig‘i shilliq qavatining yengil darajada qalinlashishi aniqlandi. Ushbu bemorlarda faol yallig‘lanish va polipoz hosilalar kuzatilmadi. Qiyosiy guruhda esa 18 nafar (30,0%) bemorda qoldiq patologik o‘zgarishlar qayd etilib, ulardan 4 nafarida (6,7%) polipoz rinosinusit retsidivi, 2 nafarida (3,3%) retension kistoz hosila va 12 nafarida (20,0%) shilliq qavat qalinlashishi hamda gomogen soyalanishlar aniqlandi. Endoskopik tekshiruvlar asosiy guruhda burun yo‘llarining erkinligi va tabiiy ostiumlar o‘tkazuvchanligining saqlanganligini, qiyosiy guruhda esa ayrim bemorlarda shilliq qavat shishi, giperemiya, sinexiya va chandiqli o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatdi (3-4-rasmlar).



3-rasm. Bemor K., 14 yosh. Taklif etilgan usulda bajarilgan jarrohlik amaliyotidan 7 oy o‘tgandagi endoskopik ko‘rinish: burun yo‘llari erkin, patologik o‘zgarishlar aniqlanmaydi.

4-rasm. Bemor U., 16 yosh. An’anaviy usulda bajarilgan jarrohlik amaliyotidan 7 oy o‘tgandagi endoskopik ko‘rinish: shilliq qavat shishi, giperemiya, sinexiya va chandiqli o‘zgarishlar saqlangan.

Jarrohlikdan keyingi 7 oylik kuzatuv yakunida asosiy guruhdagi 65 nafar bemorning 58 nafarida (89,2%), qiyosiy guruhdagi 60 nafar bemorning esa 42 nafarida (70,0%) ijobiy klinik natija qayd etildi. Davolash samaradorligidagi farq 19,2 foiz punktni tashkil etib, statistik jihatdan ahamiyatli bo'ldi ($p < 0,05$). Olingan natijalar taklif etilgan funksional endoskopik sinus jarrohligi usuli klinik simptomlarni kamaytirish, burun bo'shlig'ining funksional holatini tiklash va operatsiyadan keyingi qoldiq patologik o'zgarishlar chastotasini pasaytirishda an'anaviy usulga nisbatan yuqoriroq samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari bolalarda polipoz rinosinusitni jarrohlik davolashda taklif etilgan funksional endoskopik sinus jarrohligi usuli an'anaviy usulga nisbatan yuqoriroq klinik-funksional samaradorlik ko'rsatganligini aniqladi. Jarrohlikdan keyingi 12 oylik kuzatuv natijalarida SNOT-22 umumiy ko'rsatkichi asosiy guruhda 70,4±10,8 balldan 19,3±6,9 ballgacha, qiyosiy guruhda esa 67,9±11,2 balldan 30,3±8,3 ballgacha kamaygani qayd etilgan. Bu asosiy guruhda klinik simptomlarning kamayishi va hayot sifati ko'rsatkichlarining yaxshilanishi yaqqolroq namoyon bo'lganligini ko'rsatadi. Jarrohlikdan keyingi 7 oylik tekshiruvda ijobiy klinik natijalar asosiy guruhda 89,2%, qiyosiy guruhda 70,0% ni tashkil etib, guruhlar o'rtasidagi farq 19,2 foiz punktga teng bo'lgan ($p < 0,05$). Qoldiq patologik o'zgarishlar chastotasi mos ravishda 10,8% va 30,0% ni tashkil etgan. Olingan natijalar taklif etilgan jarrohlik usulining bolalarda polipoz rinosinusitni davolashda istiqbolli ekanligini va uning klinik samaradorligini uzoq muddatli kuzatuvlar asosida baholash muhimligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Амонов Ш.Э., Абдукаюмов А.А. Мультиспиральная компьютерная томография в оценке результатов хирургического лечения больных с хроническим риносинуситом // Оториноларингология. Восточная Европа. - 2013. - № 3. - С. 9-14.
2. Исматова К.А., Амонов Ш.Э., Шахобов А.Б. Комбинированная антигистаминная и антилейкотриеновая терапия в послеоперационном ведении пациентов с полипозным риносинуситом: обзор литературы // Вестник Ассоциации пульмонологов Центральной Азии. - 2026. - Т. 18, № 13. - С. 289-292.
3. Файзуллаев Т.С., Амонов Ш.Э., Ражабов А.Х. Предотвращение осложнений хронического риносинусита у детей с хроническим гепатитом В // Вестник Ташкентской медицинской академии. - 2022. - № 10. - С. 104-107.
4. Амонов Ш.Э., Идиев З.З. Эндоскопическая риносинусохирургия - основные хирургические методы лечения патологии околоносовых пазух // Журнал стоматологии и краниофациальных исследований. - 2022. - № 2. - С. 38-41.
5. Султанова Д.Д., Амонов Ш.Э. Иммунопатогенетические механизмы хронических риносинуситов у детей // Оториноларингология. Восточная Европа. - 2013. - № 4. - С. 82-87.
6. Rajabov A.Kh., Yoqubboev B.R. Functional endoscopic sinus surgery using artificial intelligence in children with chronic polypous rhinosinusitis // Universum: медицина и фармакология. - 2026. - № 3 (132). - P. 20-24.
7. Ражабов А.Х., Тоштемирова М.М. Особенности хронических риносинуситов у детей // Eurasian Journal of Otorhinolaryngology - Head and Neck Surgery. - 2025. - № 4. - С. 42-46.
8. Rajabov A., Yakubboev B. Modern approaches to the diagnosis and treatment of chronic rhinosinusitis in children (literature review) // Science and Innovation. - 2024. - Vol. 3, Issue D9. - P. 257-262.
9. Ражабов А.Х., Усенов С.Н. Изменение функционального состояния печени при риносинусите у детей с хроническим гепатитом В // Новый день в медицине. - 2019. - № 2. - С. 247-250.
10. Усенов С.Н., Ражабов А.Х. Эффективность ацетилцистеина в лечении хронического риносинусита у детей с хроническим вирусным гепатитом В // Назарий ва клиник тиббиёт. - 2018. - № 6. - С. 83-86.
11. Ражабов А.Х. Особенность секретолитической терапии при хронических риносинуситах у детей на фоне хронического вирусного гепатита В // Педиатрия. Научно-практический журнал. - 2017. - № 4. - С. 72-75.
12. Ражабов А.Х., Иноятова Ф.И., Амонов Ш.Э. Особенности клинического течения хронического риносинусита у детей, больных хроническим гепатитом В // Педиатрия. Научно-практический журнал. - 2015. - № 4. - С. 72-76.
13. Алимова Д.Д., Амонов А.Ш., Амонов Ш.Э. Морфологическая характеристика слизистой оболочки при полипозных риносинуситах // Педиатрия. - 2023. - № 3. - С. 158-165.
14. Алимова Д.Д., Амонов А.Ш., Амонов Ш.Э. Болаларда сурункали риносинусит патогенезида иммунологик кўрсаткичларнинг аҳамияти // Педиатрия. - 2022. - № 4. - С. 154-157.
15. Вохидов У.Н. Клинико-иммунологические особенности хронических полипозных риносинуситов и их лечение: автореф. дис. … д-ра мед. наук. - Ташкент, 2017. - С. 13-17.

TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

2026. № 10

Muharrir: Sherzod Qurbonov

Mas’ul kotib: Surmaniso Mirzaliyeva

Dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @munis_sm
Tel.: 97 748 70 03





tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz https://t.me/tibbiyot_2100 Litsenziya raqami: №745444